20-ASR O`ZBEKISTON MADANIYATI TARIXIDA MUSIQA SAN`ATINING TAXLILI

Хашимова Дилзодахон Бахориддин қизи
Фаргона давлат университети Мусиқа талими магистранти 2-курс

Musiqa bu inson kamoloti, shaxsning dunyo qarashini boyitish ma`naviyatini shakllantirishda beqiyos o`rin egallaydi. Musiqaning inson ruxiyatiga ta`siri fanda isbotlangan. Musiqa orqali inson ichki dunyosi, kechinmalari ta`riflanadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonivich tomonidan mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlari musiqa ta`limiga, madaniyatiga etibor qaratishlari ham bejiz emas. Tarixdan ma`lumki musiqa madaniyatiga berilgan etibor bizgacha yetib kelgan man`balardan ko`rishimiz mumkin. Qadimda xam musiqa ilmini o`rganish, musiqa ilmi xaqida ko`plab allomalar oz qo`lyozmalarida keltirib o`tishgan. Alisher Navoiy, Abu Ali Ibn Sino, Al Farg`oniy, Abduraxmon Jomiy va ko`plab allomalarimiz o`zlarining asarlarida musiqa inson ruxiga ta`siri, musiqa elementar nazariyasi to`grisida fikr yuritib kelishgan. Musiqa madaniyatimizni va uni avloddan-avlodga meros qoldirishda xalq musiqa san`ati ustalarining xizmatlari benihoya kattadir .

XX asrning ilk yillarida ham *O`*zbekistonda nafaqat ijtimoiy- siyosiy balki madaniy - ma`rifiy muhit yangilanadi. Markaziy Osiyoda jadidchilik harakati, ulug‘ namoyandalari va ularning ijodiy faoliyati alohida ahamiyatga egadir. Bunda, Yevropa uslubidagi milliy teatrlaming vujudga kelishiga sabab bo`ldi. Sadriddin Ayniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Tavallo, Abdulla Shakuriy, Hamza Hakimzoda Niyoziy va shu kabi na`moyandalarining sayi xarakati ila xarakterlanadi. O ‘zbek musiqa san`atiga kirib kelgan kompozitorlik ijodiyoti boshlanish bosqichlarida, O‘zbekistonda o`z faoliyatini olib borgan rus musiqa san’ati namoyandalari va kompozitorlarining ijodini alohida etirof etish joizdir albatta. Inson va uning qadr-qimmati, jamiyat rivoji , yuksaklikka intilishi va taraqqiyoti, asrlar mobaynida ajdodlardan qolgan boy ma’naviy meros sifatida qadrlanadi. Kelajak avlodning rivojlanish poydevori sifatida qadrlanib kelinmoqda. Jadidchilik harakati paydo bo‘lishi bilan chor Rossiya ma`muriyati va mahalliy mutassiblarning qattiq qarshiligiga duch keldi. Shunga qaramay jadidchilikning g‘oya va oqimlari yildan-yilga yoyila bordi va ayj ola boshladi. Mahalliy xalqlar orasida ham ommalasha bordi. Chunki ular chorizm siyosatining xalqqa qarshi qaratilgan asl mohiyatini qoralab, unga muqolifatda turgan kuchlar bilan aloqa qilib, ularga yo`1-yo`riq ko‘rsatdilar. Jadidlar rus ijtimoiy-siyosiy tajribasi va milliy ozodlik kurashi haqida matbuotda tashviqot-targ‘ibot qilibgina qolmay, o‘zlari ham mazkur harakatlarda faol ishtirok etdilar. 1911-ylda Toshkentda Munawar Qori, Abdulla Avloniy va boshqalar ``Turon`` nomli ko‘p tarmoqli jamiyat tashkil etdilar. Mazkur jamiyat SSSR hokimiyatining dastlabki yillarigacha samarali faoliyat yuritadi. Uning qoshida teatr truppasi, ``Turon`` nomli kutubxona va nashriyot ham tashkil qilinib, bular butun Turkiston bo‘ylab ma`rifat va ziyo, ilm-fan tarqalishi, kitob

chop etish ishlari rivojiga katta hissa qo‘shdilar. Jadid adabiyotida dramaturgiya, ya`ni jadid dramasi eng sermahsul va ommabop janr sifatida alohida ko‘zga tashlanadi Jadid g‘oyalarining xalqqa yoyilishi va amaliy natijalar berishida dramaturgiya va teatr san’atining ta’siri kuchli bo‘ldi. Shuning uchun ham jadid adabiyotining aksariyat yirik namoyandalari o‘zlarining ijodiy-amaliy faoliyatini drama yaratish va teatr bilan bog‘liq holda olib bordilar. Mahmudxo‘ja Behbudiy 1911-yilda dastlabki yozma milliy sahna asari ``Padarkush`` dramasini yaratib, o‘zbek jadid dramaturgiyasi va teatriga asos soldi. 1914-yilning 27-fevralida Toshkentda Abdulla Avloniy tuzgan teatr jamoasi - o‘zbek milliy teatrining birinchi mavsumi ``Padarkush`` bilan ochildi va muvaffaqiyat qozonib, el ichida mashxurlikka erishdi. 1917-yilgacha o‘zbek dramalarining soni 40 ga yetdi. Bu davrda o‘zbek san`atkorlari sekin-asta ashula va raqs dastalariga birlasha bordilar. Qo‘qonda Hamza uyushtirgan, Namanganda esa Usta Ro‘zimat tuzgan ansambllar, Farg‘onada Muhiddin qori Yoqubov tashabbusi bilan tashkil etgan milliy sozlar orkestri bunga misol bo`la oladi. Rus mustamlakachiligiga qaramay, O‘zbekistonda mahalliy o‘zbek musiqa san’ati o‘zining rivojlanish yo‘lida davom etdi. Ijrochilikning Buxoro, Xorazm, Qo‘qon yo`llari saqlab qolindi va ularni yanada takomillashtirishda o‘sha shaharlardagi mavjud an`anaviy maktablar katta ahamiyat kasb etdi. Maqomni tiklash va rivojlantirish davom eta boshladi. O`sha davrda Farg`ona vodiysida yaratilgan kuy-qo`shiqlar sodda, mehnatkash ommaning orzu-umidlarini ifodalaganligi bilan ajralib turadi. Farg‘ona musiqa folklorida kichik hajmli, jozibador, xilma-xil mavzudagi qo`shiqlar muhim o‘rin tutgan. Ayniqsa xotin-qizlar qo‘shiqlari mashhur bo‘lgan. Bu yerda xalq professional musiqa janriga mansub maqomlarning Farg‘ona-Toshkent yo`llari, ayniqsa, katta ashula keng tarqalgan edi. Xorazm yo`li o‘ziga xos xususiyatga ega bo`lib, o‘z shevasi, o‘ziga xos yo`nalishi bilan ajralib turadi. O`sha davrda Xorazmda kuylarni oddiy, bir qatorli garmon sozi bilan jo‘rlikda kuylash odat bo‘lgan. Ularni, ko`pincha, Xalfa deb ataluvchi ayollar ijro etib kelganlar. Xorazm xalq musiqasining o‘ziga xos mahalliy xususiyatlariga dostonlar ijrosi ham taalluqlidir. O‘zbekistonning boshqa viloyatlarida dostonlar musiqasi odatda, rechitativ - deklamatsion yoki ohangdor-rechitativ xarakterda bo`lsa, Xorazmda ular yorqin ifodali qo‘shiqlari bilan farq qiladi. Qashqadaryo-Surxondaryo musiqa folklorida chorvadorlar mehnati haqidagi qo`shiqlar katta o‘rin egallagan.

Dostonlar do`mbira cholg`usi jo`rligida ijro etilgan. Buxoro-Samarqand mahalliy uslubi esa musiqa merosi va ijrochiligining ikki turga ya`ni og`zaki an`anadagi professional hamda xalq musiqalariga asoslangan bo‘lib, turli janrlarini o‘z ichiga olar edi. Bu uslubda xonanda va sozandalar katta o`rin tutib, ular mohir ijrochilar sifatida elga tanilgan edilar . Samarqand, Buxoroda turli to`garaklar, musiqa maktablari tashkil etilib – ularga Ota Jalol Nosirov, Levicha hofiz, Domla Halim Ibodov, Abduqodir Ismoilov, Matyusuf Xarratov, Aqmadjon Umurzoqov kabi san`atkorlar boshchilik qildilar. XX asrning 20-yillarida bolalar havaskorligi keng rivojlandi. Umumta`lim maktablarida havaskoriik to`garaklari tashkil etila boshladi. Mazkur to`garaklar qatnashchilari yordami bilan maktab, ishchi klublarida konsert va spektakllar namoyish etilar edi. O‘zbek maktab o‘quvchilari jamoasi 60 ta o`g‘il

boladan iborat bo`lib, konsertlarda Zafariyning musiqiy pyesalarini hamda xalq qo‘shiq va raqslarini ijro etar edilar. 20-yillar boshida ayollar internatida (faqat o‘zbek qizlari ta’lim olgan) birinchi musiqiy teatr to‘garaklari yuzaga keldi. Bunday o‘quv yurtlaridan biri ``Zebiniso`` nomidagi qizlar internati edi. Bu yerda o`qish bilan birga rassomchilik, tikish-bichish bo‘yicha ham to`garaklar olib borilar edi. Ushbu maktabda 1924-yil ``San`atchi qizlar`` deb nomlangan jamoa tashkil topdi. Bu qizlar jamoasi konsertlarda xalq qo`shiq va raqslarini, zamonaviy laparlarni ijro etar edilar.1919-yilda mehnat koloniyasi ko‘rinishda tashkil topgan Toshkent erkaklar ``Namuna`` maktabi o‘zbek musiqa havaskorligining markazi bo‘lib qoldi. Bu yerda xalq musiqasining mashhur namoyandalari Sh.Shoumarov va I. Lutfullayevlar rahbarligida musiqa to‘garagi vujudga keldi. 20-yillarning ikkinchi yarmida ``Ko`k ko`ylak`` nomli yoshlar jamoalari paydo bo`la boshladi. Bu jamoalar tarkibi turli millat vakillaridan iborat bo`lib, dastur ikki tilda ya`ni o‘zbek va rus tillarida olib borilar edi. Rus ommaviy qo`shiqlari, o`zbek laparlari dasturdan o`rin olgan edi. Ushbu yillarda o‘zbek umurnta`lim maktablari qoshida vujudga kelgan havaskor puflama cholg`u asboblari orkestrlari katta e`tibor qozondi. Orkestr qatnashchilari yuqori sinf o‘quvchilari, yosh o‘qituvchilardan, hattoki aksariyati hunarmandlardan iborat edi. 1918-yil Toshkentda Turkiston xalq konservatoriyasi ochildi. Mazkur konservatoriyaning faoliyati keng ko` lamda rivojlanib, tez orada uning o‘z filiallari ham ochildi. O‘zbekistonning boshqa shaharlarida ham musiqiy ta`lim rivojlanib bordi. 20-yillarning boshida xalq konservatoriyalari ixtisoslashtirilgan professional bilim yurtlariga aylantirildi. Toshkentda Turkiston xalq konservatoriyasi zaminida musiqa texnikumi vujudga keldi. Temir yo‘l filiali ham 1923-yili temir yo`l musiqa texnikumi deb nomlana boshlandi. Texnikumda musiqa nazariyasi, musiqa tarixi fanlari, fortepiano va boshqa cholg`u asboblarida ijrochilik hamda xor mashg‘ulotlari olib borilgan.

Bugungi kunga kelib xam musiqa madanyatini yurtimizda rivojlantirish ta`lim sifatini oshirish bo`yicha bir qancha keng ko`lamli isloxotlar olib borilmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonivichning yangi qarorlari O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish, yangi O‘zbekistonning yangi tarixini yaratish, moddiy va nomoddiy madaniy meros durdonalarini saqlash va targ`ib etish, xalq og`zaki ijodiyoti va havaskorlik san`atini yanada ommalashtirish, yurtimizning jahon madaniy makoniga faol integratsiyalashuvini ta`minlash, madaniyat va san`at sohasini innovatsion rivojlantirishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Xususan: birinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-noyabrdagi PQ-4038-son qarori bilan O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasi (keyingi o‘rinlarda — Konsepsiya) va uni amalga oshirish bo‘yicha ``yo‘l xaritasi`` tasdiqlandi;

ikkinchidan, madaniyat va san’at tashkilotlarining ``do‘stlar klublari`` faoliyatini yo`lga qo`yish orqali ularni har tomonlama qo`llab-quvvatlash, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash bo‘yicha mutlaqo yangicha samarali tizim yaratildi;

uchinchidan, muzeylar renovatsiya dasturi qabul qilindi, o‘zbek xalqining ko`hna va betakror san`ati namunasi bo‘lgan ``Xorazm lazgisi`` YUNESKO ning Insoniyat nomoddiy madaniy merosining reprezentativ ro‘yxatiga kiritildi;

to‘rtinchidan, madaniy meros obyektlari va san`at ashyolarini restavratsiya qilish bo‘yicha milliy maktab, shuningdek, xalq cholg`ulari, milliy raqs, maqom yo‘nalishlarida respublika ko`rik-tanlovlari qayta tiklandi;

beshinchidan, mamlakatimizda muntazam ravishda o‘tkaziladigan Xalqaro maqom san’ati anjumani, Xalqaro baxshichilik san’ati festivali, “Sharq taronalari `` xalqaro musiqa festivali, ``Buyuk ipak yo‘li`` xalqaro folklor san`ati festivali hamda ``Raqs sehri`` xalqaro festivali tashkil etilib, o‘zbek mumtoz va folklor san`atining noyob namunalari va an`analarini hamda madaniy muloqotni yanada rivojlantirish bo‘yicha samarali tizim yo‘lga qo‘yildi.

2022-yil 2- fevraldagi ``Madaniyat va san`at soxasini yanada rivojlantirishga doir qo`shimcha chora tadbirlar to`g`risida``gi PQ-112 sonli qarori imzolandi. Unga ko`ra umumta`lim maktablarda milliy musiqa cholg`ularida kamida bitta cholg`u asbobda kuy ijro etish ko`nikmalari shakillantirish ko`zda tutilgan. Bu xam bo`lsa Mamlakatimizda Musiqa savodiga, musiqa madaniyatiga, milliy cholg`ularga berilgan etibor desak adashmaymiz.

Mustaqil O`zbekistonda yangi jamiyat qurish ishi keng avj olgan hozirgi davrda yosh avlodni har tomonlama kamol toptirish, ularning Vatanga bo`lgan mehr-muhabbatini oshirish, ma`naviy kamol toptirish, ma`naviy-siyosiy onggini o`stirish va estetik-axloqiy tarbiya borasida san`at, xususan musiqa san`ati o`zining ta`sir kuchi bilan nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Zero u eng qadimiy, ayni chog`da zamonaviy va xalqning sevimli san`ati hisoblanadi